

SHARTNOMA 12-son

Toshkent sh.

2022 y. “11”avgust

YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, uning nizomi asosida ish yurituvchi bosh kotibi G.O. Umerova, bir tomondan va OOO “Mercury DMC”, keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi, uning Nizom asosida ish yurituvchi rahbari Abdugafarov A.A., ikkinchi tomondan, birgalikda keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb yuritiladi, ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Buyurtmachi qabul qilish va to‘lash, Ijrochi Buyurtmachi topshirig‘iga muvofiq o‘tkaziladigan “Band bo‘lmagan xotin-qizlar imkoniyatlarini raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda tadbirdorlik ko‘nikmalari orqali kengaytirish” nomli YUNYESKOning Qatnashuv dasturi loyihasi doirasida Toshkent viloyatining Oxangaron shahri, Sirdaryo viloyati Boyovut tumani, Qashqadaryo viloyati Beshkent shahri, Xorazm viloyati Urganch shahri o‘tkaziladigan mahorat darslarining 70 nafardan ishtirokchilarini ikki, kun ikki mahaldan oziq-ovqat bilan ta’minalash bo‘yicha xizmatlarni (keyingi o‘rinlarda “Xizmatlar” deb yuritiladi) bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Xizmat (ish) sifati Buyurtmachining eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha topshirgan hujjatlaridagi texnik topshirig‘iga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidagi belgilangan xizmat (ish)lar me’yori va qoidalariga muvofiq bo‘lishi lozim.

1.4. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son Qonuniga muvofiq Buyurtmachi tomonidan amalga ochirilayotgan 2022 yil “09” avgust , 22120012129841 raqamli lot hujjatlari asosida tuziladi.

2. Shartnomaning umumiy qiymati va to‘lov shartlari

2.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha ko‘rsatiladigan Xizmat (ish)larning umumiy qiymati 69 880 000(Oltmish to‘ggiz million sakkiz yuz sakson ming) so‘m, 15% QQS bilan.

2.2. Xizmat (ish)larning narxlari qat’iy belgilangan tartibda qoldiriladi va o‘zgartirilmaydi.

2.3. Xizmat (ish)lar bo‘yicha hisob-kitoblar Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan amalda ko‘rsatilgan xizmat (ish)larga ko‘ra amalga oshiriladi.

Buyurtmachi pudratchiga ushbu shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida shartnoma bo‘yicha ishlarning umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida avans to‘lovini o‘tkazish majburiyatini oladi. Qolgan 70 foizi ishlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanganidan keyin 10 ish kuni ichida o‘tkaziladi.

2.4. Buyurtmachi ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishda bajarilgan ishlar bo‘yicha dalolatnomasi (akt) va hisob-faktura imzolangan kundan boshlab o‘n besh bank kun ichida amalga oshiriladi.

3. Yetkazib berish-qabul qilish tartibi

3.1. Ko‘rsatilgan Xizmat (ish)larga egalik huquqi har ikki Tomon hisob-faktura va dalolatnomasi imzolagandan so‘ng Buyurtmachiga o‘tadi.

3.2. Buyurtmachi tugallanganlik to‘g‘risidagi ma’lumotni va hisobot hujjatlarini olgan kundan boshlab o‘n ish kuni ichida imzolangan dalolatnomasi va hisob-fakturani Ijrochiga topshirishi shart yoki asosli rad etish ma’lumotini yo‘llashi lozim.

3.3. Buyurtmachi ko‘rsatilgan xizmat (ish)larni qabul qilishdan asosli ravishda bosh tortgan taqdirda, Tomonlar zarur xujjatlarni puxtalash va ularni amalga oshirish muddatlarini ko‘rsatuvchi ikki tomonlama dalolatnomasi tuzadilar.

3.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilish sanasi Tomonlar ko'rsatilgan xizmat (ish)larni qabul qilish va topshirish dalolatnomasida imzolagan sana hisoblanadi.

4. Tomonlarning javobgarligi va xizmat (ish)lar ko'rsatish sifati

4.1. Shartnoma muddati buzilgan taqdirda Ijrochi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,1% miqdorida jarima to'laydi, lekin jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan Xizmat (bajarilgan ish)lar narxining 50% oshmasligi lozim.

4.2. Xizmatlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir bank kuni uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,1% miqdorida, lekin summaning 50% dan ko'p bo'lмаган miqdorda jarima to'laydi.

4.3. Agar taqdim etilgan xizmat belgilangan talablarga javob bermasa ushbu shartnomaning 1.3-bandida Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

ko'rsatilgan xizmat (bajarilgan ish)ni qabul qilish va to'lashdan bosh tortish;

agar Xizmat (ish)lar to'langan bo'lsa, to'langan summaning qaytarilishini talab qilish, shuningdek, Ijrochi sifatsiz bajarilgan xizmat (ish)lar narxining 20% miqdorida jarima undirish.

4.4. Majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun jarima va penyalarni to'lash tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5. Shikoyat qilish

5.1. Buyurtmachining texnik talablari bajarilmagan taqdirda, Buyurtmachi Xizmat (ish)lar sifatiga da'vo qilish mumkin.

5.2. Agar Buyurtmachi tomonidan qabul qilinganida xizmat (ish) miqdori yoki sifati bo'yicha tafovut aniqlansa, Ijrochi o'z hisobidan etti taqvim kunida qo'shimcha Xizmat (ish)lar bajarishi shart.

6. Nizolarni hal qilish

6.1. Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasidagi barcha bahs va kelishmovchiliklar ushbu shartnoma tomonlar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi lozim. Agar Tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

7. Fors-major holatlari

7.1. Tomonlar yong'in, suv toshqini, zilzila, urush, blokadalar va boshqa umumiy e'tirof etilgan fors-major holatlari, davlat organlari tomonidan hujjalarni qabul qilinishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha ushbu majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Agar fors-major holatlari yuzaga kelsa, Tomonlar bunday holatlarni yuzaga kelganligi to'g'risida tegishli organlar tomonidan berilgan hujjatlarni taqdim etgan holda yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

8. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

9. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

9.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda tuzilgan hamda Buyurtmachining va Ijrochining vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Tomonlar quyidagi hollarda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega:

ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida Ijrochi tomonidan shartnoma bajarilmagan taqdirda;


ushbu shartnoma shartlari bir marta buzilgan yoki ko'rsatiladigan Xizmat (bajarilgan ish)larning sifati shartnoma majburiyatlariga mos kelmagan taqdirda.

Shartnomani bekor qilishga haqli bir Tomon ikkinchi Tomonga o‘z istagi to‘g‘risida yozma ravishda xabar berishga majburdir.

10. Boshqa shartlar

- 10.1. Tomonlarning hech biri o‘z huquqlarini yoki majburiyatlarini ushbu shartnomaga bo‘yicha uchinchi tomonning yozma roziligidan boshqa shaxsga o‘tkaza olmaydi.
- 10.2. Tomonlarning to‘lov yoki boshqa rekvizitlari o‘zgargan taqdirda bu haqda boshqa Tomon darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.
- 10.3. Shartnomaga bir xil ikki (2) nusxada tuzilgan, mazmuni va yuridik kuchi bo‘yicha aynan o‘xshash hamda Tomonlarning muhrlari va imzolari bilan tasdiqlangan.
- 10.4. Ijrochi ushbu shartnomani tuzish va bajarish jarayonida unga ma’lum bo‘lgan ma’lumatlarning maxfiyligini ta’minlashi shart.

11. Tomonlarning yuridik manzillari va to‘lov rekvizitlari

Ijrochi	Buyurtmachi
<p>«Mercury DMC» MChJ</p> <p>Manzil:Toshkent sh,Xyshnovo,13 Telefon: 71-235-77-71 H/r:2020 8000 2048 0248 3001 SOO AKB «Kapitalbank» Toshkent sh. MFO 01088 STIR: 207024781 OKED:79110</p> <p>Direktor  A. Abdugafarov</p>	<p>UNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Komissiya</p> <p>Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100084,Toshkent sh.Amir Temur shox ko’chasi,107B Tel:90-186-06-13 STIR 200542049 OKONX: 97300 OKED: 84111 H/r:22696000500600188004 Milliy bank Toshkent shahar amaliyot bo‘limi SVIFT:NBFAAUZ2X MFO:00451 STIR: 201052966</p> <p>Bosh kotib  G. Umerova</p>

2022-yil 11-avgustdagи 12-sonli shartnomaga

QO'SHIMCHA KELISHUV

Toshkent sh

2022-yil "11" avgust

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, Bosh kotibi G.O.Umerova, bir tomonidan va OOO "Mercury DMC", keyingi o'rnlarda "Ijrochi" deb yuritiladi, rahbari A.A. Abdugafarov, ikkinchi tomondan, birlgilikda keyingi o'rnlarda "Tomonlar" deb yuritiladi, quyidagilar to'g'risida ushbu qo'shimcha kelishuvni tuzdilar:

1. Tomonlar o'rtasida 2.1-bandga o'zgartirish kiritish orqali xizmatlar narxini pasaytirishga hamda 2.1-bandni quyidagi taxrirda bayon qilishga kelishidi:
«2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan Xizmat (ish)larning umumiy qiymati 59 248 000 (Ellik to'qqiz million ikki yuz qirq sakkiz ming) so'm, 15% QQS bilan».
2. Shartnomaning mazkur kelishuvga ta'sir qilmaydigan qolgan qismlari o'zgarishsiz qoladi va tomonlar ular bo'yicha o'z majburiyatlarini tasdiqlaydilar.
3. Ushbu kelishuv imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

TOMONLAR IMZOSI

BUYURTMACHI

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston
Respublikasi Milliy komissiyasi
Manzil: O'zbekiston Respublikasi,
100084, Toshkent sh. Amir Temur shox
ko'chasi, 107B
Tel: 90-186-06-13 STIR 200542049
OKONX: 97300 OKED: 84111
H/r: 22696000500600188004
Milliy bank Toshkent shahar amaliyot
bo'limi
SVIFT: NBFAAUZ2X
MFO: 00451 STIR: 201052966



Bosh kotib

G.Umerova

IJROCHI

«Mercury DMC» MChJ
Manzil: Toshkent sh, Xyshnavo, 13
Telefon: 71-235-77-71
H/r: 2020 8000 2048 0248 3001
SOO AKB «Kapitalbank»
Toshkent sh.
MFO 01088 STIR: 207024781
OKED: 79110



Direktor

A. Abdugafarov